



## XALQ DEPUTATLARI JIZZAX SHAHAR KENGASHINING QARORI

2025-yil 6-may

VII-8-81-3-55-K/25

Jizzax shahar

### **Jizzax shahrining Sharof Rashidov va G'allaorol tumanlari bilan ma'muriy-hududiy chegara chizig'ini tasdiqlash to'g'risida**

“O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma‘muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-,24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Jizzax shahrida ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud(massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shahar komissiyasining Sharof Rashidov va G‘allaorol tumanlari bilan ma‘muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

2. Quyidagilar:

Jizzax shahrining Sharof Rashidov va G‘allaorol tumanlari bilan ma‘muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

Jizzax shahrining Sharof Rashidov va G‘allaorol tumanlari bilan ma‘muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashidan so‘ralsin.

4. Shahar hokimligi axborot xizmati (X.Raximova)ga mazkur qarorni shahar hokimligining rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



XOLMURODOV KOMIL  
ADXAMOVICH

Xalq deputatlari Jizzax shahar  
Kengashining  
2025-yil 6-maydagi  
VII-8-81-3-55-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Jizzax viloyati Jizzax shahar ma'muriy-hududiy  
chegara chizig'ining  
TAVSIFI**

Jizzax shahri, G'allarol va Sharof Rashidov tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, quruq soy bo'yida joylashgan boshlang'ich 1 - nuqta deb qabul qilindi. (*WGS-84 koordinatalar tizimida shimoliy kenglik 40°05'45,060", sharqiy uzoqlik 67°40'34,996"*).

**A dan B gacha Sharof Rashidov tumani yerlari bilan 1 – 107 - nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:**

**1 - nuqtadan** chegara chizig'i quruq soyning o'ng tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 992 metr masofani o'tadi va haydalma yer chegarasiga tutashadi, keyin haydalma yer chegarasi bo'ylab avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 180 metr, so'ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 129 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lning janub tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 750 metr, so'ngra yo'lning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 854 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'26,900", sharqiy uzoqlik 67°42'02,593"*).

**2 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 1186 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°07'01,045", sharqiy uzoqlik 67°42'24,417"*).

**3 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining janub tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yo'nalishda 1304 metr, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4820 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'54,170", sharqiy uzoqlik 67°46'05,431"*).

**4 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan avval g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 256 metr, keyin yo'lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 275 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'59,642", sharqiy uzoqlik 67°46'06,349"*).

**5- nuqtadan** chegara chizig'i to'g'ri chegara chizig'i orqali shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 110 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, quruq soyga tutashadi va soyning chap tomoni bilan umumiy g'arbiy yo'nalishda 422 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chegara chizig'i orqali g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 403 metr masofani o'tib, qir adirlik yonbag'rida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'08,134", sharqiy uzoqlik 67°45'30,416"*).

**6 - nuqtadan** chegara chizig'i qir adirlik yonbag'ridan to'g'ri chegara chizig'i orqali shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 600 metr masofada quruq soyni kesib o'tib, soy bo'yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'25,396", sharqiy uzoqlik 67°45'18,730"*).

**7 - nuqtadan** chegara chizig'i quruq soydan to'g'ri chegara chizig'i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 84 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tib, keyin yo'lning shimol tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga

olgan holda 716 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'39,391"*, *sharqiy uzoqlik 67°45'40,897"*).

**8 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lini kesib o'tib, quruq ariqqa tutashadi va ariqning o'ng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 608 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chegara chizig'i orqali dala tuproq yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yidagi 9-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'34,974"*, *sharqiy uzoqlik 67°46'03,764"*).

**9 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1032 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'28,692"*, *sharqiy uzoqlik 67°46'45,406"*).

**10 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 454 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'15,710"*, *sharqiy uzoqlik 67°46'53,684"*).

**11 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan to'g'ri chegara chizig'i orqali shimoliy-sharqiy yo'nalishda 179 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'ning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1055 metr masofani o'tib, so'ng to'g'ri chegara chizig'i orqali avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 104 metr, keyin sharqiy yo'nalishda 112 metr masofani o'tib, qir adirlik yonbag'rida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'14,423"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'50,625"*).

**12 - nuqtadan** chegara chizig'i qir adirlik yonbag'ridan to'g'ri chegara chizig'i orqali shimoliy yo'nalishda 357 metr masofani o'tib, qir adirlik cho'qqisida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'25,991"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'49,710"*).

**13 - nuqtadan** chegara chizig'i qir adirlik cho'qqisidan to'g'ri chegara chizig'i orqali shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 995 metr masofani o'tib, qir adirlik cho'qqisida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°06'43,749"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'14,635"*).

**14 - nuqtadan** chegara chizig'i quruq chegara chizig'i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 1418 metr, keyin to'g'ri chegara chizig'i orqali g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 278 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi va tomorqa devori bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 96 metr masofada qishloq ichki yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°07'33,069"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'14,169"*).

**15 - nuqtadan** chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 121 metr masofani o'tib, keyin tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 60 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'ning janub tomoni bilan janubiy-g'arbiy yo'nalishda 72 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°07'36,055"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'10,831"*).

**16 - nuqtadan** chegara chizig'i qishloq ichki yo'lini kesib o'tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo'ylab avval umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 574 metr, so'ng shimoliy-sharqiy yo'nalishda 58 metr masofani o'tib, so'ngra to'g'ri chegara chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 58 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, tomorqa chegarasi bo'yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°07'49,627"*, *sharqiy uzoqlik 67°46'56,489"*).

**17 - nuqtadan** chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab avval umumiy g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 232 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 187 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, so'ng yo'ning shimol tomoni bilan sharqiy-

shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 138 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°07'56,903"*, *sharqiy uzoqlik 67°46'50,510"*).

**18 - nuqtadan** chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni boʻylab umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 673 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°08'06,125"*, *sharqiy uzoqlik 67°46'25,400"*).

**19 - nuqtadan** chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi boʻylab avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 153 metr, soʻng umumiy shimoliy yoʻnalishda 385 metr, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 715 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 647 metr masofada dala tuproq yoʻlini va Sangzor daryosini kesib oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°08'37,775"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'07,019"*).

**20 - nuqtadan** chegara chizigʻi Sangzor daryosidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 319 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlni kesib oʻtadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, soʻng tomorqa chegarasi boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 322 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 208 metr masofada tomorqa chegarasiga oʻtadi, soʻngra tomorqa chegarasi boʻylab avval umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 428 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 640 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°09'25,919"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'07,772"*).

**21 - nuqtadan** chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 121 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 40 metr, keyin umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 322 metr, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 134 metr, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda 261 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 352 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 155 metr masofani oʻtib, soʻng soyni kesib oʻtadi va tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 156 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°09'39,268"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'30,322"*).

**22 - nuqtadan** chegara chizigʻi tomorqa chegarasi boʻylab umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1242 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'05,284"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'00,246"*).

**23 - nuqtadan** chegara chizigʻi tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 520 metr masofada ariqqa tutashadi va umumiy sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 264 metr, keyin ariqning chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 338 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'04,201"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'37,159"*).

**24 - nuqtadan** chegara chizigʻi tomorqa chegarasi boʻylab avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 582 metr, keyin umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1243 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'43,409"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'21,820"*).

**25 - nuqtadan** chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 304 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 144 metr masofada qishloq ichki yo'lga o'tadi va yo'ning shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 316 metr masofani o'tib, tomorqa chegarasi bo'yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'38,044", sharqiy uzoqlik 67°47'44,605"*).

**26 - nuqtadan** chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-sharqiy yo'nalishda 124 metr masofada kanalni kesib o'tadi va qishloq ichki yo'lga tutashadi, keyin yo'ning g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1037 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°11'11,657", sharqiy uzoqlik 67°47'30,995"*).

**27 - nuqtadan** chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 114 metr masofani o'tib, keyin zovur ko'tarmasiga tutashadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomon ko'tarmasi bilan 844 metr masofani o'tib, zovur ko'tarmasi bo'yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'49,260", sharqiy uzoqlik 67°47'52,751"*).

**28 - nuqtadan** chegara chizig'i zovurni kesib o'tadi va qishloq ichki yo'lga tutashadi, keyin yo'ning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 387 metr masofada tomorqa chegarasiga o'tadi va tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 279 metr masofani o'tib, tomorqa chegarasi bo'yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°11'02,965", sharqiy uzoqlik 67°48'03,756"*).

**29 - nuqtadan** chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 295 metr, keyin umumiy sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 463 metr masofada kanalga tutashadi va janubiy yo'nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 310 metr masofani o'tib, kanal bo'yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'57,211", sharqiy uzoqlik 67°48'31,214"*).

**30 - nuqtadan** chegara chizig'i kanalni kesib o'tadi va qishloq ichki yo'lga tutashadi, keyin yo'ning shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 390 metr masofada avtomobil yo'lini kesib o'tadi va yo'ning sharq tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 176 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'lga tutashadi va yo'ning shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 152 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy yo'nalishda 108 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°11'07,670", sharqiy uzoqlik 67°48'53,275"*).

**31 - nuqtadan** chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 786 metr masofada avtomobil yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°11'03,649", sharqiy uzoqlik 67°49'25,997"*).

**32 - nuqtadan** chegara chizig'i avtomobil yo'lining sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 436 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'49,791", sharqiy uzoqlik 67°49'23,709"*).

**33 - nuqtadan** chegara chizig'i avtomobil yo'lidan qishloq ichki yo'lga o'tadi va yo'ning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 244 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo'ylab avval o'z yo'nalishini o'zgartirmagan holda 762 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 177 metr

masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°11'07,075"*, *sharqiy uzoqlik 67°50'04,640"*).

**34 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining janub tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 434 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo'ylab janubiy-sharqiy yo'nalishda 174 metr masofani o'tib, tomorqa chegarasi bo'yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'51,066"*, *sharqiy uzoqlik 67°50'03,579"*).

**35 - nuqtadan** chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab avval shimoliy yo'nalishda 229 metr, keyin sharqiy yo'nalishda 361 metr masofada zovurni kesib o'tib, zovur ko'tarmasi bo'yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'57,394"*, *sharqiy uzoqlik 67°50'19,639"*).

**36 - nuqtadan** chegara chizig'i zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomon ko'tarmasi bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 180 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 568 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°11'01,457"*, *sharqiy uzoqlik 67°50'45,725"*).

**37 - nuqtadan** chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 1070 metr masofada R-38 avtomobil yo'liga tutashadi va yo'lining shimol tomoni bilan avval shimoliy-sharqiy yo'nalishda 1931 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 759 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°11'28,361"*, *sharqiy uzoqlik 67°52'38,320"*).

**38 - nuqtadan** chegara chizig'i R-38 avtomobil yo'lini kesib o'tadi va qishloq ichki yo'liga tutashadi, keyin yo'lining janub tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 190 metr masofada latokka tutashadi, so'ng umumiy janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda latokning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan 2282 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°10'13,073"*, *sharqiy uzoqlik 67°52'10,555"*).

**39 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lini kesib o'tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo'ylab g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 124 metr masofada zovurni kesib o'tadi, so'ng janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 328 metr, so'ngra janubiy-g'arbiy yo'nalishda 388 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°09'54,978"*, *sharqiy uzoqlik 67°51'501,898"*).

**40 - nuqtadan** chegara to'g'ri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 45 metr masofada zovurni kesib o'tadi va maktab devoriga tutashadi, keyin maktab devori bo'ylab avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 184 metr, so'ng janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 176 metr, so'ngra g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 58 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lining janub tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 266 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°09'40,585"*, *sharqiy uzoqlik 67°51'49,415"*).

**41 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 549 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi, keyin yo'lining sharq tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 526 metr, keyin yo'lining janub tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 592 metr masofani o'tib, kanal bo'yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°09'08,852"*, *sharqiy uzoqlik 67°51'40,818"*).

**42 - nuqtadan** chegara chizig'i avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 452 metr, keyin janubiy-sharqiy yo'nalishda 1952 metr masofani o'tib, kanal bo'yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°08'24,028", sharqiy uzoqlik 67°53'02,449"*).

**43 - nuqtadan** chegara chizig'i kanalni kesib o'tadi va boshqa kanalga tutashadi, keyin kanalning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 2608 metr masofada avtomobil yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°09'42,597", sharqiy uzoqlik 67°53'38,563"*).

**44 - nuqtadan** chegara chizig'i avtomobil yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1760 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°09'32,652", sharqiy uzoqlik 67°54'501,772"*).

**45 - nuqtadan** chegara chizig'i avtomobil yo'lining g'arb tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 7098 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 553 metr, so'ng shimol tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 156 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'46,897", sharqiy uzoqlik 67°52'501,585"*).

**46 - nuqtadan** chegara chizig'i avtomobil yo'lini kesib o'tib, qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 460 metr masofada temir yo'lni kesib o'tib, temir yo'l bo'yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'37,392", sharqiy uzoqlik 67°53'05,710"*).

**47 - nuqtadan** chegara chizig'i temir yo'l sim to'sig'i bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 1126 metr masofada M-39 "Toshkent-Termiz" avtomobil yo'liga tutashadi va yo'lining shimol tomoni bilan umumiy g'arbiy yo'nalishda 848 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'37,152", sharqiy uzoqlik 67°51'44,105"*).

**48- nuqtadan** chegara chizig'i M-39 "Toshkent-Termiz" avtomobil yo'lini kesib o'tadi va qishloq ichki yo'liga tutashadi, keyin yo'lining janub tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 306 metr masofada tomorqa chegarasiga o'tadi va tomorqa chegarasi bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 855 metr masofani o'tib, M-39 "Toshkent-Termiz" avtomobil yo'lini 4K-253a Islom Karimov ko'chasi bilan bog'lovchi yangi avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'29,303", sharqiy uzoqlik 67°51'15,012"*).

**49- nuqtadan** chegara chizig'i M-39 "Toshkent-Termiz" avtomobil yo'lini 4K-253a Islom Karimov ko'chasi bilan bog'lovchi yangi avtomobil yo'lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo'nalishda 1756 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'32,655", sharqiy uzoqlik 67°51'12,296"*).

**50 - nuqtadan** chegara chizig'i 4K-253a Islom Karimov ko'chasini bog'lovchi yangi avtomobil yo'lining sharq tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 968 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 221 metr masofada M-39 avtomobil yo'liga tutashadi va yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 160 metr masofani o'tib, M-39 avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03'56,804", sharqiy uzoqlik 67°51'08,020"*).

**51 - nuqtadan** chegara chizig'i M-39 avtomobil yo'lini kesib o'tadi va avtomobil yo'liga tutashadi, keyin yo'lining sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 311 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 394 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo'nalishda 1000 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi

va tomorqa devori bo'ylab janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 101 metr masofada g'isht ishlab chiqarish korxonasi chegarasiga tutashadi, so'ng g'isht ishlab chiqarish korxonasi chegarasi bo'ylab avval janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 205 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'53,594", sharqiy uzoqlik 67°51'15,108"*).

**52 - nuqtadan** chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining shimol tomoni bo'ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 454 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'46,451", sharqiy uzoqlik 67°51'301,659"*).

**53 - nuqtadan** chegara chizig'i qishloq ichki yo'lidan latokka o'tadi va latokning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 640 metr masofani o'tib, latok bo'yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'401,465", sharqiy uzoqlik 67°51'57,227"*).

**54 - nuqtadan** chegara chizig'i latokning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 1237 metr masofani o'tib, latok bo'yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'08,393", sharqiy uzoqlik 67°52'26,149"*).

**55 - nuqtadan** chegara chizig'i latokning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan janubiy yo'nalishda 592 metr masofani o'tib, latok bo'yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'49,294", sharqiy uzoqlik 67°52'24,967"*).

**56 - nuqtadan** chegara chizig'i latokning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1147 metr masofani o'tib, latok bo'yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'301,670", sharqiy uzoqlik 67°53'07,402"*).

**57 - nuqtadan** chegara chizig'i latokdan dala tuproq yo'luga o'tib, keyin yo'lining shimol tomoni bo'ylab avval janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 594 metr, keyin g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 337 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'10,669", sharqiy uzoqlik 67°52'42,893"*).

**58 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan quruq ariqqa o'tadi va ariqning o'ng tomoni bo'ylab g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 338 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'15,654", sharqiy uzoqlik 67°52'30,207"*).

**59 - nuqtadan** chegara chizig'i quruq ariqning o'ng tomoni bo'ylab umumiy g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 431 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'13,786", sharqiy uzoqlik 67°52'12,895"*).

**60 - nuqtadan** chegara chizig'i quruq ariqning chap tomoni bo'ylab shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 453 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'22,222", sharqiy uzoqlik 67°51'57,569"*).

**61 - nuqtadan** chegara chizig'i quruq ariqning chap tomoni bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 336 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'23,225", sharqiy uzoqlik 67°51'43,484"*).

**62 - nuqtadan** chegara chizig'i quruq ariqning chap tomoni bo'ylab avval shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 330 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo'nalishda 743 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, 63-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'47,603", sharqiy uzoqlik 67°52'04,494"*).

**63 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan to'g'ri chegara chizig'i orqali g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1179 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'04,398", sharqiy uzoqlik 67°51'19,997"*).

**64 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining janub tomoni bilan umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 902 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02' 19,814"*, *sharqiy uzoqlik 67°50' 54,653"*).

**65 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 500 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02' 34,525"*, *sharqiy uzoqlik 67°51' 03,048"*).

**66 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan zavod chegarasiga tutashadi va zavod chegarasi bo'ylab g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 414 metr masofani o'tib, zavod chegarasida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'38,094"*, *sharqiy uzoqlik 67°50' 46,590"*).

**67 - nuqtadan** chegara chizig'i zavod chegarasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 222 metr masofani o'tib, zavod chegarasida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02' 44,829"*, *sharqiy uzoqlik 67°50' 43,396"*).

**68 - nuqtadan** chegara chizig'i zavod chegarasidan to'g'ri chegara chizig'i orqali avval g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 229 metr, keyin shimoliy yo'nalishda 37 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02' 43,296"*, *sharqiy uzoqlik 67°50' 34,117"*).

**69 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 612 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03' 0,159"*, *sharqiy uzoqlik 67°50' 25,852"*).

**70 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 87 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chegara chizig'i orqali g'arbiy yo'nalishda 116 metr masofada dala tuproq yo'lga tutashadi va yo'lining janub tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 242 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02' 56,818"*, *sharqiy uzoqlik 67°50' 08,244"*).

**71 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan to'g'ri chegara chizig'i orqali g'arbiy yo'nalishda 238 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02' 56,422"*, *sharqiy uzoqlik 67°49' 58,212"*).

**72 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan to'g'ri chegara chizig'i orqali g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 379 metr masofani o'tib, tomorqa chegarasida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02' 54,237"*, *sharqiy uzoqlik 67°49' 42,524"*).

**73 - nuqtadan** chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 123 metr masofani o'tib, tomorqa chegarasida joylashgan 74-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02' 57,426"*, *sharqiy uzoqlik 67°49' 39,411"*).

**74 - nuqtadan** chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 394 metr masofani o'tib, qir adirlik yonbag'irlarida joylashgan 75-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03' 09,037"*, *sharqiy uzoqlik 67°49' 45,592"*).

**75 - nuqtadan** chegara chizig'i qir adirlik yonbag'irlaridan quruq chegara chizig'i orqali avval sharqiy yo'nalishda 185 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 367 metr masofani o'tib, qabrison chegarasi bo'yida joylashgan 76-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03' 13,693"*, *sharqiy uzoqlik 67°50'06,798"*).

**76 - nuqtadan** chegara chizig'i qabrison chegarasi bo'ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 145 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chegara chizig'i orqali

o'z yo'nalishini o'zgartirmagan holda 102 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 77-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03' 20,458"*, *sharqiy uzoqlik 67°50' 03,595"*).

**77 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining janub tomoni bilan umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 743 metr masofani o'tib, M-39 avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 78-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03' 34,840"*, *sharqiy uzoqlik 67°49' 43,189"*).

**78 - nuqtadan** chegara chizig'i M-39 avtomobil yo'lining janub tomoni bilan avval g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 1266 metr, keyin g'arbiy yo'nalishda 1004 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 79-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40° 03' 17,475"*, *sharqiy uzoqlik 67° 48' 12,742"*).

**79 - nuqtadan** chegara to'g'ri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 79 metr masofada M-39 avtomobil yo'lini kesib o'tadi va soyga tutashadi, keyin soyning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 791 metr masofani o'tib, soybo'yida joylashgan 80-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40° 03' 35,910"*, *sharqiy uzoqlik 67° 48' 35,390"*).

**80 - nuqtadan** chegara chizig'i soyni kesib o'tadi va dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lining janub tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 137 metr, so'ng shimol tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 446 metr masofani o'tib, yo'lbo'yida joylashgan 81-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40° 03' 52,397"*, *sharqiy uzoqlik 67° 48' 41,009"*).

**81 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 652 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo'nalishda 325 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 82-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40° 04' 08,961"*, *sharqiy uzoqlik 67° 49' 13,787"*).

**82 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 378 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 83-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'20,751"*, *sharqiy uzoqlik 67° 49' 12,252"*).

**83 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiyyo'nalishda 92 metr masofada qir adir yonbag'rlariga o'tib, keyin qir adir yonbag'rlari bo'ylab avval shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 359 metr, so'ng g'arbiy yo'nalishda 256 metr masofani o'tib, tomorqa chegarasi bo'yida joylashgan 84-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'29,890"*, *sharqiy uzoqlik 67°48'48,801"*).

**84 - nuqtadan** chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 132 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lining janub tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 71 metr masofani o'tib, keyin qir adir yonbag'riga tutashadi va qir adir yonbag'ri bo'ylab shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 135 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 85-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'34,563"*, *sharqiy uzoqlik 67°48'38,175"*).

**85 - nuqtadan** chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 465 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi, keyin yo'lining janub tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 440 metr masofani o'tib, yo'lbo'yida joylashgan 86-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'56,207"*, *sharqiy uzoqlik 67° 48' 30,357"*).

**86 - nuqtadan** chegara chizig'i qishloq ichki yo'lidan haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi bo'ylab g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 613 metr

masofada dala tuproqyo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 353 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 87-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'43,678"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'55,273"*).

**87 - nuqtadan** chegara chizig‘i quruq chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 263 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan avval shimoliy yo‘nalishda 314 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 921 masofada qir adir yonbag‘rlariga tutashadi, so‘ngra qir adir yonbag‘rlari bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 626 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 88-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'32,417"*, *sharqiy uzoqlik 67°47'06,652"*).

**88 - nuqtadan** chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval g‘arbiy yo‘nalishda 227 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 78 metr, so‘ng umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 503 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasi bo‘yida joylashgan 89-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'42,667"*, *sharqiy uzoqlik 67°46'58,181"*).

**89 - nuqtadan** chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 30 metr masofada Sangzor daryosi qirg‘og‘iga tutashadi va umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1682 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 231 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 229 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 90-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'15,967"*, *sharqiy uzoqlik 67°45'45,151"*).

**90- nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 550 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 91-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'01,251"*, *sharqiy uzoqlik 67°45'57,438"*).

**91 - nuqtadan** chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 861 metr masofani o‘tib, quruq ariq bo‘yida joylashgan 92-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'04,194"*, *sharqiy uzoqlik 67°45'26,461"*).

**92- nuqtadan** chegara chizig‘i quruq ariqning o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 523 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 93-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'55,367"*, *sharqiy uzoqlik 67°45'08,111"*).

**93- nuqtadan** chegara chizig‘i quruq ariqdan quruq soyga o‘tadi va soyning o‘ng tomoni bilan avval janubiy yo‘nalishda 496 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 485 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 94-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'35,959"*, *sharqiy uzoqlik 67°45'26,886"*).

**94- nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 811 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 95-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'43,724"*, *sharqiy uzoqlik 67°45'57,886"*).

**95 - nuqtadan** chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 231 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 96-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'37,511"*, *sharqiy uzoqlik 67°46'03,301"*).

**96- nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 674 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 97-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'25,274"*, *sharqiy uzoqlik 67°45'40,994"*).

**97- nuqtadan** chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 302 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 191 metr, so‘ng

umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 528 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasida joylashgan 98-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03'57,548"*, *sharqiy uzoqlik 67°45'43,622"*).

**98- nuqtadan** chegara chizigʻi haydalma yer chegarasi boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 340 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1413 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasida joylashgan 99-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03'45,132"*, *sharqiy uzoqlik 67°44'32,993"*).

**99 - nuqtadan** chegara chizigʻi haydalma yer chegarasi boʻylab avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 363 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 262 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 318 metr masofada quruq soyga oʻtib, keyin soyning chap tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 188 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 100-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03'18,836"*, *sharqiy uzoqlik 67°44'41,526"*).

**100 - nuqtadan** chegara chizigʻi quruq soyning chap tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 297 metr masofada tosh maydalash sexi chegarasiga tutashadi va tosh maydalash sexi chegarasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 332 metr masofada tuproq koʻtarmasiga tutashadi, keyin tuproq koʻtarmasi boʻylab janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 936 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 101-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'49,287"*, *sharqiy uzoqlik 67°44'20,614"*).

**101- nuqtadan** chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 598 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 102-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03'01,749"*, *sharqiy uzoqlik 67°44'01,318"*).

**102- nuqtadan** chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan haydalma yer chegarasiga oʻtib, keyin haydalma yer chegarasi boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2857 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 103-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'11,609"*, *sharqiy uzoqlik 67°42'22,085"*).

**103- nuqtadan** chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1196 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 104-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'40,458"*, *sharqiy uzoqlik 67°42'45,271"*).

**104 - nuqtadan** chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan haydalma yer chegarasiga oʻtib, keyin haydalma yer chegarasi boʻylab avval janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 108 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 328 metr, soʻng umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 423 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasida joylashgan 105-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'41,039"*, *sharqiy uzoqlik 67°42'22,362"*).

**105- nuqtadan** chegara chizigʻi haydalma yer chegarasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1027 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasida joylashgan 106-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'23,716"*, *sharqiy uzoqlik 67°41'57,150"*).

**106- nuqtadan** chegara chizigʻi haydalma yer chegarasi boʻylab avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 292 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 263 metr masofani oʻtib, Jizzax shahri, Sharof Rashidov tumani va Gʻallarol tumani chegara chiziqlari kesishgan joy, haydalma yer chegarasida joylashgan 107-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°01'30,133"*, *sharqiy uzoqlik 67°41'50,318"*).

**B dan A gacha G'allarol tumani yerlari bilan 107 – 1 - nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:**

**107 - nuqtadan** chegara chizig'i haydalma yer chegarasi bo'ylab avval shimoliy-sharqiy yo'nalishda 622 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1305 metr masofani o'tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 108-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'16,450"*, *sharqiy uzoqlik 67°41'42,933"*).

**108 - nuqtadan** chegara chizig'i haydalma yer chegarasidan dala tuproq yo'liga o'tib, keyin yo'lning janub tomoni bilan avval sharqiy yo'nalishda 180 metr, keyin yo'lning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yo'nalishda 900 metr, so'ngra g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 839 metr masofani o'tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 109-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°02'54,027"*, *sharqiy uzoqlik 67°41'17,735"*).

**109 - nuqtadan** chegara chizig'i quruq chegara chizig'i orqali shimoliy-sharqiy yo'nalishda 485 metr masofada haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegaras bo'ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 363 metr masofani o'tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 110-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03'16,600"*, *sharqiy uzoqlik 67°41'34,124"*).

**110 - nuqtadan** chegara chizig'i to'g'ri chegara chizig'i orqali shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 148 metr masofada avtomobil yo'lini kesib o'tib, quruq soyga tutashadi va soyning o'ng tomoni bo'ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 508 metr masofani o'tib, soy bo'yida joylashgan 111-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°03'33,834"*, *sharqiy uzoqlik 67°41'32,980"*).

**111 - nuqtadan** chegara chizig'i to'g'ri chegara chizig'i orqali avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 1219 metr, keyin g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 568 metr masofada temir yo'lni kesib o'tib, temir yo'l bo'yida joylashgan 112-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'20,189"*, *sharqiy uzoqlik 67°41'32,599"*).


**112-nuqtadan** chegara chizig'i quruq chegara chizig'i orqali g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1355 metr masofani o'tib, haydalma yer chegarasidajoylashgan 113-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°04'43,791"*, *sharqiy uzoqlik 67°40'44,393"*).

**113-nuqtadan** chegara chizig'i haydalma yer chegarasi bo'ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1816 metr masofani o'tib, keyin quruq chegara chizig'i orqali shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 992 metr masofani o'tib, Jizzax shahar, G'allaorol va Sharof Rashidov tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, soy bo'yida joylashgan boshlang'ich 1-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°05'45,060"*, *sharqiy uzoqlik 67°40'34,996"*).

Xalq deputatlari Jizzax shahar  
Kengashining  
2025-yil 6-maydagi  
VII-8-81-3-55-K/25 -son qaroriga  
2-ilova

*Jizzax viloyati Jizzax shahar ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha*

**KARTOGRAFIK  
CHIZMASI**



**Chegaradosh yerlar izohnomasi**

A dan B gacha Sharof Rashidov tuman yerlari

B dan A gacha G'allaorol tuman yerlari

**Shartli belgilar**



Chegaraning burilish nuqtalari

Shahar va shaharchalar chegarasi